

KOREYS TILINI O'QITISHDA GRAMMATIK KOMPETENSIYANI NUTQIY KO'NIKMALAR BILAN INTEGRATSIYA QILISH METODIKASI

Olmosxon Niyozova Erkaboyevna

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
koreys tili o'qituvchisi TDPU mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada koreys tilini xorijiy til sifatida o'qitishda grammatik kompetensiyani an'anaviy deduktiv usullardan farqli olaraq, to'rtta asosiy nutqiy ko'nikma ya'n tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Maqolada kommunikativ yondashuv va topshiriqlarga asoslangan ta'lim tamoyillari asosida koreys tili grammatik formalarini nutqiy amaliyotga tatbiq etish usullari aniq misollar (boshlang'ich va o'rta daraja grammatikasi) orqali ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: koreys tili metodikasi, grammatik kompetensiya, integratsiyalashgan yondashuv, nutqiy ko'nikmalar, kommunikativ til ta'limi, TOPIK.

Аннотация:

В данной статье исследуются вопросы развития грамматической компетенции при обучении корейскому языку как иностранному на основе интеграции четырех основных речевых навыков: аудирования, говорения, чтения и письма, в отличие от традиционных дедуктивных методов. На основе принципов коммуникативного подхода и задачно-ориентированного обучения (ТБЛТ) в работе на конкретных примерах (грамматика начального и среднего уровней) продемонстрированы методы внедрения грамматических форм корейского языка в речевую практику.

Ключевые слова:

методика преподавания корейского языка, грамматическая компетенция, интегрированный подход, речевые навыки, коммуникативное обучение языку, TOPIK.

Abstract:

This article explores the issues of developing grammatical competence in teaching Korean as a foreign language (KFL) through an integrated approach encompassing the four core language skills: listening, speaking, reading, and writing, as opposed to traditional deductive methods. Based on the principles of the Communicative Language Teaching (CLT) approach and Task-Based Language Teaching (TBLT), the paper demonstrates methods for implementing Korean grammatical forms into speech practice using specific practical examples from beginner and intermediate levels.

Keywords:

Korean language pedagogy, grammatical competence, integrated approach, language skills, Communicative Language Teaching, TOPIK.

Zamonaviy tilshunoslik va lingvodidaktikada til o'rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish birlamchi vazifa hisoblanadi. Koreys tilini ikkinchi yoki

xorijiy til sifatida o'qitishda uzoq yillar davomida grammatika-tarjima metodi ustuvorlik qilib keldi. Biroq, faqatgina grammatik qoidalarni mexanik tarzda yodlash talabalarning real muloqot jarayonida o'z fikrlarini erkin bayon etishlarini ta'minlay olmaydi.

Grammatik kompetensiyani nutqiy ko'nikmalar-tinglab tushunish (듣기), gapirish (말하기), o'qish (읽기) va yozish (쓰기) bilan integratsiyalashgan holda o'rgatish talabaning til birliklarini kontekst ichida, funksional anglashiga xizmat qiladi. Ushbu maqolaning maqsadi koreys tili darslarida grammatik tuzilmalarni nutqiy faoliyat turlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlantirishning metodologik asoslarini yoritish va amaliy modelini taklif etishdan iborat.

Kommunikativ til ta'limi - prinsiplariga ko'ra, grammatika tilning mexanik qurilishi emas, balki ma'no uzatish qurolidir. Koreys tili agglutinatив ya'ni qo'shimcha qo'shilish orqali so'z yasaladigan til bo'lganligi sababli, birgina grammatik qo'shimcha gapning butun mazmuni, ijtimoiy munosabati va hurmat darajasini belgilaydi.

Grammatikani integratsiyalashgan holda o'qitish quyidagi pedagogik bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Grammatikani kontekstual idrok etish - tinglash, o'qish orqali.
2. Strukturaning funksiyasini tahlil qilish -kognitiv bosqich.
3. Nutqiy faoliyatda qo'llash – gapirish, yozish orqali.

Ushbu tizimni amaliy misollar yordamida ko'rib tahlil qilib chiqamiz.

1-misol: Boshlang'ich daraja (초급)-niyat va rejalarni ifodalash: “-(으)려고 하다” grammatikasi

An'anaviy metodda o'qituvchi shunchaki “-(으)려고 하다 - harakatni bajarish niyatini bildiradi” deb qoidani yozdiradi. Integratsiyalashgan metodda esa jarayon to'rtta ko'nikmani qamrab oladi:

1. Tinglab tushunish va o'qish: O'quvchilarga ikki do'stning dam olish kunidagi rejalari haqidagi audio matn eshittiriladi va matn tarqatiladi.

A: 지훈 씨, 이번 주말에 뭐 할 거예요?
(Jihun, bu dam olish kuni nima qilmoqchisiz?)

B: 저는 한국 친구를 만나서 같이 경복궁에 가려고 해요. 민우 씨는요?
Men koreys do'stim bilan uchrashib, birga Kyonbokkun saroyiga bormoqchimiz. Sizchi?

A: 저는 집에서 쉬면서 한국어 시험 공부를 하려고 해요.
Men uyda dam olib, koreys tili imtihoniga tayyorlanmoqchiman.

2. Kognitiv tahlil: O'qituvchi talabalarning e'tiborini alohida belgilangan so'zlarga qaratadi. Undosh bilan tugasa ya'ni padchimli bo'lsa -으려고 하다, unli bilan tugasa ya'ni padchimsiz so'z bo'lsa-려고 하다 qo'shilishi qoidasi qisqa tushuntiriladi.

3. Gapirish va yozish integratsiyasi : O‘quvchilarga “Mening ta’til rejalarim (나의 방학 계획)” nomli mavzusida juftlikda ishlash topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar bir-birlaridan rejasini so‘raydilar (gapirish) va eshitgan ma’lumotlarini jadvalga to‘ldiradilar (yozish):

A: 방학 때 뭐 할 거예요?

Ta’tilda nima qilmoqchisiz?

B: 이번 방학에는 제주도 여행을 가려고 해요. 사진을 많이 찍으려고 해요.

Bu safargi ta’tilda Chechudoga sayohat qilmoqchiman. Shuningdek ko‘p rasmga olmoqchiman.

2-misol: O‘rta daraja (중급)- sabab va asoslash: “-느라고” grammatikasi

-느라고 grammatik ko‘rsatkichi o‘rta darajadagi eng qiyin grammatik strukturalardan biri bo‘lib, u salbiy oqibatga olib kelgan davomli harakat-sababni ifodalaydi. Uni integratsiyalashgan usulda o‘qitish quyidagicha izohlanadi:

O‘qish va tinglash: o‘quvchilarga kechikish yoki vazifani bajara olmaslik sabablari aks etgan qisqa dialog yoki kundalikdan kichik matnlar beriladi.

“어제 밤늦게까지 대학교 레포트를 쓰느라고 오늘 아침 아르바이트에 지각했다. 너무 피곤해서 수업 시간에도 졸았다.” (Kecha tunda kechgacha universitet referatini yozaman deb, bugun ertalabki qo‘shimcha ishimga kechikdim .Juda charchaganim uchun dars vaqtida ham mudiradim.)

Strukturaviy tahlil: o‘quvchilar ushbu grammatikaning faqat harakat fe’llariga qo‘shilishi, o‘tgan zamon shakli (-았-) bilan kela olmasligi va subyektning o‘z ixtiyori bilan qilgan harakati bo‘lishi kerakligini kontekstdan tushunadilar.

Nutqiy integratsiya (Topshiriq): “Bahona va uzr (변명과 사과)” nomli mavzusida keystadi tashkil etiladi.

Topshiriq: Talaba darsga kechikib keldi yoki uy vazifasini qilmadi. U o‘qituvchiga vaziyatni tushuntirishi kerak.

Nutq shakli:

Talaba: 선생님, 죄송합니다. 어제 밤에 동생을 돌보느라고 숙제를 못 했습니다. (Ustoz, uzr so‘rayman. Kecha tunda ukamga qaraganligim sababli, vazifani bajara olmadim).

Quyidagi jadvalda an’anaviy grammatik yondashuv bilan nutqiy ko‘nikmalar integratsiyalashgan yondashuvning qiyosiy tahlili keltirilgan:

Mezonlar	An’anaviy	Integratsiyalashgan yondashuv	Mezonlar
Ta’lim markazi	O‘qituvchi va darslik	Talaba va nutqiy vaziyat	Ta’lim markazi

Grammatika holati	Alohida ajratilgan qoida	Matn va nutq ichida	Grammatika holati
Ko'nikmalar aloqasi	Faqat mexanik yozish va tarjima	Tinglash, gapirish, o'qish va yozish zanjiri	Ko'nikmalar aloqasi
TOPIK imtihoniga ta'siri	Faqat Grammatika va O'qish qismiga foydali	TOPIK II-Eshitish, o'qish va ayniqsa yozish - 쓰기 qismida yuqori natija	TOPIK imtihoniga ta'siri

Koreys tilida grammatik kompetensiyani nutqiy ko'nikmalar bilan integratsiya qilish o'rganuvchining tilni "bilish" darajasidan uni real hayotda "qo'llash" darajasiga olib chiqadi. Akademik litseyda koreys tilini o'qitish samaradorligini oshirish uchun:

1. Darsliklardagi grammatik mashqlarni interaktiv o'yinlar va keyslar (role-play, debatlar) ko'rinishida loyihalash.

2. Grammatika o'rgatilganda, albatta uning sotsiolingvistik jihatini - tinglovchining yoshi va ijtimoiy mavqeyiga qarab qaysi nutqiy uslubda qo'llanishi nutqiy vaziyatlar orqali singdirish.

Adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Choi, J. (2020). Integrated Korean Grammar Education for Intermediate Learners. Seoul: Hanuri Publishing.

2. Kim, Y. (2021). Communicative Approach in KFL Classroom. Journal of Korean Language Education, 32(2), 105-128.

3. Larson-Freeman, D. (2003). Teaching Language: From Grammar to Gramaring. Boston: Heinle & Heinle.

4. Lee, S. (2018). A Study on the Structural and Functional Integration in Korean Pedagogy. Academic Press of Yonsei University.

5. Park, M. (2019). The Impact of Task-Based Language Teaching on Korean Grammar Acquisition. Korean Linguistics Journal, 45, 135-156.

6. Niyazova O. AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARING GRAMMATIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUV //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – T. 4. – №. 25. – C. 41-46.

7. Niyozova O. E. O'ZBEKCHA-KOREYSCHA TARJIMALARDA O'XSHATISHLARNI VUJUDGA KELTIRUVCHI GRAMMATIK VOSITALAR TARJIMASI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 6. – C. 70-76.